

VOSIQOVA MAMLAKAT SOBIROVNANING HAYOTI VA FAOLIYATI



Fayzullayeva Sevara Akmalovna
Toshkent Davlat TDYU huzuridagi
M.S.Vosiqova nomidagi akademik
litseyning 2-bosqich 12-guruh talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqola O‘zbekistonning mashhur huquqshunosi, davlat va jamoat arbobi Vosiqova Mamlakat Sobirovnaning hayoti hamda serqirra faoliyatiga bag‘ishlanadi. Unda uning bolalik va ta’lim davri, huquqshunoslik sohasidagi izlanishlari, ilmiy ishlari va kasbiy yutuqlari yoritib beriladi. Shuningdek, Vosiqovaning davlat boshqaruvida olib borgan faoliyati, huquqiy madaniyatni shakllantirishga qo‘shgan hissasi va jamiyat uchun qoldirgan bebaho merosi tahlil qilinadi. Inson huquqlarini himoya qilish va qonun ustuvorligini ta’minlash yo‘lidagi xizmatlari bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini saqlab qolmoqda. Ushbu maqola M.Vosiqova tavalludining 101 yilligiga bag‘ishlanib yozilgan bo‘lib, yosh avlodni Vosiqovaning ibratli hayoti va fidokorona mehnati bilan tanishtirishni maqsad qiladi.

Abstract: This article is dedicated to the life and multifaceted career of Mamlakat Sobirovna Vosikova, a prominent Uzbek jurist, stateswoman, and public figure. It highlights her childhood and education, contributions to the field of law, academic achievements, and professional milestones. The paper also examines her role in state governance, her efforts in promoting legal culture, and the invaluable legacy she left for society. Vosikova’s commitment to protecting human rights and upholding the rule of law remains significant to this day. Written in honor of her 101st anniversary, the article aims to introduce younger generations to her exemplary life and devoted service.

Tayanch iboralar: yuridik fanlar bo'yicha tadqiqotchi, davlat va jamiyat arbobi, yuridik bilimlarni shakllantirish va huquqiy ongni rivojlantirish, qonun ustuvorligi, oliy sud, adliya vaziri, inson huquqlari, huquqni muhofaza qilish, jahon miqyosida.

Basic phrases: researcher in law, stateswoman and public figure, formation of legal knowledge and development of legal awareness, rule of law, supreme Court, minister of Justice, human rights, protection of law, on the international scale.

Kirish: Huquq — jamiyat taraqqiyoti va adolatning kafolati bo'lib xizmat qiladigan eng muhim sohalardan biridir. Uning rivojlanishida huquqshunoslarning hissasi beqiyosdir. Shunday yuridik olimlardan biri — Mamlakat Vosiqova bo'lib, u o'zbek huquqshunoslik ilmda chuqur iz qoldirgan yetuk mutaxassisdir. Vosiqova o'z bilimdonligi, qat'iy pozitsiyasi va qonun ustuvorligini mustahkamlash yo'lidagi fidokorona mehnati bilan nafaqat huquqiy sohada, balki keng jamoatchilik orasida ham katta hurmat qozongan. Ushbu maqolada uning hayoti, kasbiy faoliyati va huquqiy sohaga qo'shgan ulkan hissasi tahlil qilinadi.

Introduction: Law is one of the key foundations of society, ensuring justice and guiding social development. The contribution of legal scholars to this process is invaluable. Among such distinguished figures is Mamlakat Vosikova, a renowned jurist who left a lasting mark on Uzbek legal scholarship. Through her profound knowledge, principled stance, and dedication to upholding the rule of law, she gained respect not only within the professional legal community but also in society at large. This article examines her life, professional career, and significant contributions to the field of law.

Mamlakat Vosiqova Sobirovnaning: Hayot yo'li

Mamlakat Vosiqova 1924 - yilda Toshkent shahrida, Bodomzor mahallasida, Sobit ota va Lazokat ona xonadonida dunyoga kelgan. 1942 - yilda o'rta maktabni a'lo baholarga tamomlab, (TDYU) Toshkent Davlat Yuridik Universitetiga hujjat topshiradi va u yerga o'qishga qabul qilinadi. U yerda huquqshunoslik fanining yetuk

vakillaridan saboq oladi. Ulardan biri Xadicha Sulaymonova edi. Mamlakat Vosiqova 1946 - yilda institutni muvaffaqiyatli tamomlaydi.

1946 - 1949 yillarda Xadicha Sulaymonova rahbarligida ilmiy ish olib boradi va ustozlari Moskvada SSSR fanlar akademiyasining, huquq institutida himoya qilishini tavsiya etadi. Moskvadagi himoyada ham, ustoz shogirdini yolg'iz qoldirmaydi, aksincha, unga dalda bo'ladi. Mamlakat Vosiqova o'z faoliyatini Toshkent Davlat Yuridik Universitetida katta o'qituvchi lavozimida boshlaydi. Shundan so'ng:

- O'zbekiston Adliya vazirining o'rinbosari (1952 - 1957)
- O'zbekiston Oliy Sudi raisining o'rinbosari (1957 - 1960)
- O'zbekiston Oliy Kengashi Prezidiumida yuridik bo'limi mudiri (1960 - 1964)
- O'zbekiston Vazirlar Kengashi huzuridagi yuridik komissiya raisi (1964 - 1970)
- O'zbekiston Adliya vaziri (1970 - 1984) yo'lini bosib o'tadi.

“Mamlakat Vosikova Sobirovna's Life Path”

Mamlakat Vosikova was born in 1924 in Tashkent, in the “Bodomzor” neighborhood, into the family of Sobit (father) and Lazokat (mother). In 1942, she graduated from secondary school with distinction and was admitted to the Tashkent State Law University (TSLU). During her studies, she was mentored by distinguished scholars of law, among them Professor Khadicha Sulaymonova.

In 1946, Vosikova successfully completed her higher education.

Between 1946 and 1949, under the supervision of Khadicha Sulaymonova, she conducted scientific research. Upon her supervisor's recommendation, she defended her dissertation at the Institute of Law of the Academy of Sciences of the USSR in Moscow. At the defense, Professor Sulaymonova provided constant support and encouragement to her student. Vosikova began her professional career as a senior lecturer at the Tashkent State Law University. She subsequently held a series of prominent state and legal positions, including:

- Deputy Minister of Justice of Uzbekistan (1952–1957)

- Deputy Chairperson of the Supreme Court of Uzbekistan (1957–1960)
- Head of the Legal Department of the Presidium of the Supreme Council of Uzbekistan (1960–1964)
- Chairperson of the Legal Commission under the Council of Ministers of Uzbekistan (1964–1970)
- Minister of Justice of Uzbekistan (1970–1984)

Mamlakat Vosiqova Sobirovnaning jamoatchilik faoliyati:

Mamlakat Vosiqova 1978-yilda yuridik fanlari doktori ilmiy darajasiga, 1986-yilda esa professor unvoniga ega bo'ldi. U qonunchilikni xalq manfaatlari bilan uyg'unlashtirish tarafdori bo'lib, huquqiy bilimlarni amaliyotga tatbiq etishda yetakchi rol o'ynadi. Uning bevosita ishtirokida ishlab chiqilgan qonunlar va sharhlar o'zbek tilida huquqiy tushunchalarni rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etdi. Faoliyati davomida u bir qator yuksak mukofotlarga sazovor bo'ldi, jumladan 1994-yilda "Shuhrat" medali bilan taqdirlandi. Vosiqova nafaqat taniqli olim-huquqshunos, balki faol jamoatchi sifatida ham tanilgan. Uning jamoatdagi sa'y-harakatlari huquqiy savodxonlikni oshirish, inson huquqlarini himoya qilish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga qaratilgan edi.

U ayniqsa, aholining huquqiy bilimlarini oshirishga alohida e'tibor qaratib, seminarlar, davra suhbatlari va ma'ruzalar orqali jamiyatda qonun ustuvorligini mustahkamlashga hissa qo'shdi. Yoshlar uchun huquqiy tarbiya dasturlarini ishlab chiqishda faol qatnashdi. Shu bilan birga, inson huquqlarini himoya qilish sohasida keng ko'lamli tashabbuslar bilan chiqdi, turli milliy va xalqaro konferensiyalarda qatnashib, xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka tatbiq etish bo'yicha takliflar berdi. Uning tashabbusi bilan huquqbuzarliklarni kamaytirish maqsadida huquqni muhofaza qilish organlari bilan hamkorlikda maxsus dasturlar amalga oshirildi. Shuningdek, fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish, nodavlat notijorat

tashkilotlari va ommaviy axborot vositalarini qo'llab-quvvatlash borasida faol ish olib bordi. Vosiqova, xususan, ayollarning huquqlarini himoya qilish, ularning huquqiy madaniyatini oshirish va jamiyatdagi faol rolini ta'minlashga qaratilgan loyihalarni amalga oshirdi. Oilaviy zo'ravonlikka qarshi kurashish va ayollarning huquqiy himoyasini kuchaytirishga oid dasturlarni ishlab chiqishda ham faol qatnashdi. U xalqaro tashkilotlar bilan samarali hamkorlik qilib, O'zbekistonning xalqaro huquqiy maydondagi obro'sini oshirishga munosib hissa qo'shdi. Inson huquqlariga oid xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka moslashtirish bo'yicha loyihalarda faol ishtirok etdi va xalqaro huquqshunoslar hamjamiyati bilan yaqin aloqalarni yo'lga qo'ydi. Mamlakat Vosiqovaning jamoatchilik faoliyati uning ilmiy yutuqlarini jamiyat hayotiga amaliy tatbiq etishning yorqin ko'rinishi bo'lib, huquqiy madaniyatni rivojlantirish, inson huquqlarini himoya qilish va fuqarolik jamiyatini shakllantirishda sezilarli natijalarga erishilishiga sabab bo'ldi. Bu esa uning nafaqat ilmiy, balki ijtimoiy faoliyatda ham yuksak e'tirofga loyiq ekanini yaqqol ko'rsatadi.

“Mamlakat Vosikova Sobirovna’s Public Activities”

In 1978, Mamlakat Vosikova attained the degree of Doctor of Legal Sciences, and in 1986 she was conferred the academic title of Professor. She consistently promoted the idea of aligning legislation with the interests of society and played a leading role in the practical implementation of legal scholarship. The laws and commentaries developed with her direct participation played a pivotal role in advancing legal concepts and terminology in the Uzbek language. Throughout her career, she was honored with several high state awards, most notably the “*Shuhrat*” medal in 1994. Vosikova was recognized not only as a prominent legal scholar but also as an active public figure. Her civic engagement was dedicated to enhancing legal literacy, strengthening the protection of human rights, and advancing the development of civil society. She devoted particular attention to raising public awareness of legal issues, contributing to the consolidation of the rule of law through seminars, round-table discussions, and lectures. She also took an active role in designing legal education

programs for the younger generation. At the same time, she launched numerous initiatives in the sphere of human rights protection, participating in national and international conferences and proposing the adaptation of international human rights standards into domestic legislation. On her initiative, special programs in cooperation with law enforcement bodies were implemented to reduce rights violations. Moreover, she worked actively on strengthening civil society institutions, supporting the legal activities of non-governmental organizations, public associations, and the mass media. Particular emphasis was placed on women's rights. Vosikova developed projects aimed at enhancing women's legal culture and ensuring their broader participation in public life. She contributed to the elaboration of programs against domestic violence and measures to reinforce the legal protection of women. Through close cooperation with international organizations, she contributed to raising Uzbekistan's profile in the global legal arena. She took part in projects aimed at incorporating international human rights standards into national legislation and strengthened Uzbekistan's relations with the global community of legal scholars. Mamlakat Vosikova's public activities stand as a vivid example of how scientific achievements in the legal field can be successfully applied to social practice. Her initiatives and projects brought significant results in promoting legal culture, safeguarding human rights, and fostering the development of civil society, which demonstrates that her contribution deserves recognition both in the academic sphere and in public life.

Xulosa:

Mamlakat Vosiqovanning ilmiy izlanishlari va amaliy faoliyati O'zbekiston huquqiy tizimining shakllanishi va rivojlanishida muhim o'rin egallaydi. Uning yetishtirgan shogirdlari bugungi kunda ham mamlakatda huquq sohasida faol xizmat qilmoqda. Olimaning inson huquqlarini himoya qilish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga oid g'oyalari nafaqat milliy, balki xalqaro miqyosda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Vosiqovanning hayoti va faoliyati huquqshunoslik faniga fidokorona xizmat qilgan, yoshlar uchun ibratli maktab bo'lib qolmoqda.

Mening orzu-maqsadim — kelajakda yetuk va nufuzli yurist bo‘lish. Chunki huquq va adolat jamiyat hayotining asosiy tayanchi, inson qadr-qimmatini himoya qiluvchi eng muhim vositadir. Hozirda men M.Vosiqova nomidagi akademik litseyda tahsil olib, bilimim va dunyoqarashimni kengaytirishga harakat qilmoqdaman. Chunki har bir katta maqsad yo‘lida tinimsiz izlanish va mehnat zarur.

Men Mamlakat Vosikova kabi bilimdon, tajribali va obro‘li ayol huquqshunos ustozlarimizning hayot yo‘lidan ilhom olaman, ularning kasbga sadoqati va adolat uchun kurashishi men uchun yo‘l-yo‘riq va namunadir.

Cocclusion:

Mamlakat Vosikova’s scientific research and practical work played a vital role in the formation and development of Uzbekistan’s legal system. The students she trained continue to contribute actively to the field of law in the country today. Her ideas on the protection of human rights and the advancement of civil society have retained their significance not only on the national level but also internationally. Vosikova’s life and career stand as a devoted service to the science of law and remain an exemplary model for the younger generation.

My dream and goal is to become a competent and respected lawyer in the future. Law and justice are the main pillars of society and the most important means of protecting human dignity. At present, I am studying at the academic lyceum named after M. Vosiqova, striving to broaden my knowledge and worldview, because every great goal requires constant effort and hard work.

I draw inspiration from the life path of distinguished female lawyers like Mamlakat Vosiqova. Their dedication to the profession and struggle for justice serve as guidance and an example for me

Foydalanilgan adabiyotlar (used literature)

1. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
2. Uch mashhur o'zbek ayoli. T.: "Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi", 2022.
3. <https://qomus.info>
4. <https://malumot.ru>
5. <https://uzpedia.uz/kitob/>
6. <https://uz.wikipedia.org>
7. <https://uza.uz>